



Barhayot an'analar

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bugun 13 fevral kuni Axborot resurs markazi tashabbusi bilan Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi bilan hamkorlikda samarqandlik Shavkat baxshi Bobomurodov bilan ijodiy uchrashuv tashkil etildi.



Shavkat baxshi buyuk bobomiz, yetuk sarkarda Amir Temurning hayotiy faoliyatini o'rganib, o'z muallifligida "Sohibqiron Temurbek" nomli dostonini yaratdi va xuddi shu nomda kitob chop ettirdi. Ijodkor uchrashuvda baxshichilik san'atiga bo'layotgan e'tibor, muhtaram yurtboshimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar haqida to'lqinlanib gapirib berdilar. Shuningdek, o'zlari terma dostonlardan parchalar ijro etib, barchani ko'nglini shod ayladi. "Sohibqiron Temurbek" dostoni buyuk bobokalonimizning harbiy yurishlari, shaxsiy hayoti, umri davomida amalga oshirgan islohotlari haqida hikoya qiladi. Mazkur asar yoshlarimizni vatanparvarlik, ona yurtga sadoqat, oila va do'stlarga muhabbat tuyg'ulari ostida kamol topishida muhim o'rin tutadi.



Hozirda mamlakatimizda milliy baxshichilik san'atini rivojlantirish, shu bilan birga, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, mutolaa madaniyatini oshirish kabi qator islohotlar ko'lami kengayib bormoqda. Shavkat baxshi Bobomurodovning ijodiy faoliyati ushbu islohotlar rivojiga munosib hissa bo'ladi. Ona xalqimiz necha yillardan buyon sevib ardoqlagan barhayot an'analar boqiy yashayversin!





Dostonbek RAHMATULLAYEV
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Matbuot kotibi